

**SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA QABUL QILGAN
QARORLARNING HUQUQIY OQIBATLARINI TARTIBGA SOLISH
MEXANIZMLARI**

Voxidov Faroxiddin Maxammadzokir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Kiber huquqi yo'nalishi magistranti

e-mail: farohiddinvohid@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining yuridik sohaga, xususan, sud-huquq tizimiga tatbiq etilishining dolzarbligi tahlil qilingan. Sun'iy intellektidan foydalanishning afzalliklari, cheklovlari hamda xavf-xatarli jihatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi va AQSH kabi xorijiy mamlakatlarning sun'iy intellekt sohasidagi tajribalari o'rganilib, ularning milliy xavfsizlik, sud qarorlarini qabul qilish, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi roli yoritilgan. Muallif tomonidan ushbu texnologiyani yuridik jarayonlarga tadbiq etishda ehtiyotkorlik bilan yondashish, huquqiy asoslarni shakllantirish va sohaga oid mutaxassislar tayyorlash zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, sud-huquq tizimi, yuridik texnologiyalar, huquqiy mexanizm, xorijiy tajriba, inson huquqlari, raqamli xavfsizlik, texnologik islohotlar.

**МЕХАНИЗМЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРАВОВЫХ
ПОСЛЕДСТВИЙ РЕШЕНИЙ, ПРИНЯТЫХ С ПОМОЩЬЮ
ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА**

Вохидов Фарохиддин Махаммадзокирович

Магистрант по направлению киберправо

Ташкентский государственный юридический университет

e-mail: farohiddinvohid@gmail.com

Аннотация: в данной статье рассматривается актуальность внедрения технологий искусственного интеллекта в юридическую сферу, в

частности в судебно-правовую систему. Обсуждаются преимущества, ограничения и потенциальные риски, связанные с использованием ИИ. Изучен опыт таких зарубежных стран, как Российская Федерация и Соединённые Штаты Америки, в применении ИИ, а также его роль в обеспечении национальной безопасности, поддержке судебных решений и защите прав граждан. Автор подчёркивает необходимость осторожного подхода к внедрению, разработки правовой базы и подготовки квалифицированных специалистов в данной области.

Ключевые слова: искусственный интеллект, судебно-правовая система, юридические технологии, правовой механизм, зарубежный опыт, права человека, цифровая безопасность, технологические реформы.

REGULATORY MECHANISMS FOR THE LEGAL CONSEQUENCES OF DECISIONS MADE WITH THE HELP OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Vokhidov Farokhiddin Makhammadzokirovich

Master's Student in Cyber Law
Tashkent State University of Law
e-mail: farohiddinvohid@gmail.com

Abstract: *this article analyzes the relevance of integrating artificial intelligence technologies into the legal field, particularly within the judicial system. It discusses the advantages, limitations, and potential risks associated with the use of AI. The experiences of foreign countries such as the Russian Federation and the United States in the implementation of AI are examined, highlighting their role in ensuring national security, supporting court decisions, and protecting citizens' rights. The author emphasizes the need for cautious implementation, the*

development of a legal framework, and the preparation of qualified professionals in this field.

Keywords: *artificial intelligence, judicial system, legal technologies, legal mechanism, foreign experience, human rights, digital security, technological reforms.*

Kirish

Zamonaviy davrda ilm-fan va texnologik taraqqiyot hayotimizning barcha jabhalariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, turli sohalarda innovatsion yondashuvlar asosida faoliyat yuritilmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish tobora kengayib, ular kundalik hayotimiz va professional faoliyatimizda muhim o'rin egallamoqda. Bu jarayon yuridik sohani ham chetlab o'tayotgani yo'q — SI huquqiy faoliyatda samarali vositaga aylanishi yo'lida jadal rivojlanmoqda. Shu munosabat bilan ushbu ishda sun'iy intellekt haqida umumiy tasavvur, uning yutuqlari, imkoniyatlari, kamchiliklari hamda bu boradagi muammolar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, SI texnologiyalarining yuridik sohadagi amaliy ahamiyati alohida ko'rib chiqiladi.

ASOSIY QISM

Sun'iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Sun'iy intellekt tushunchasi raqamli muhitda mustaqil qaror qabul qiluvchi tizim sifatida alohida o'rin egallaydi. Uni inson intellektining texnologik modifikatsiyasi sifatida baholash mumkin. Mazkur atama dastlab 1956-

yilda AQSHdagi Dartmut universitetida o'tkazilgan ilmiy anjumanda fanga kiritilgan. Kompyuter sohasining taniqli mutaxassisi Jon Makkarti ushbu tushunchani ilk bor ilmiy istiloh sifatida taklif qilgan. Umuman olganda, sun'iy intellekt — bu murakkab fikrlash, qaror qabul qilish, tashqi muhit o'zgarishiga moslashish kabi aqliy faoliyatni avtomatlashtirilgan tizimlar orqali amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa, sun'iy intellektdan nafaqat texnik jarayonlarda, balki huquqiy munosabatlarda ham samarali foydalanish imkonini beradi.¹1990-yillarda sun'iy intellekt taraqqiyotida yangi sahifa ochildi. 1994-yil 31-avgustda Garri Kasparov Pentium Genius dasturiga imkoniyatni boy berdi. Bu sun'iy intellektning klassik shaxmatda (vaqt chegarasisiz) insoniyat ustidan qozongan ilk g'alabasi bo'lgandi. Mag'lubiyatdan so'ng Kasparov uyida ushbu dastur bilan o'n partiyaning yettitasida g'alaba qozonishini aytib o'tdi. Lekin butun dunyo yaqin orada shaxmat kompyuterlari yengib bo'lmas holatga kelishini tushunib yetgandi. 1997-yil esa burilish nuqtasiga aylandi — Garri Kasparov yana mag'lub bo'ldi. Bu safar Deep Blue kompyuteriga. 1997-yilda Kasparov dunyoning eng yaxshi shaxmatchisi edi. U hali siyosat bilan shug'ullanmagan, Professional shaxmat assotsiatsiyasi versiyasiga ko'ra dunyoning eng yaxshi shaxmatchisi unvoniga sazovor bo'lgan va shaxmat dasturlariga qarshi o'yinlarda insoniyat sharafiga himoya qilardi.

¹ "Tashkent Law Spring" III Xalqaro yuridik forumi.
https://www.youtube.com/live/0Wvxw4_p6lw?si=e3QoVPLDTuBmEzJb.

1989-yilda Garri Deep Thought superkompyuterini osongina mag'lubiyatga uchratgan va mashina hech qachon insonni mag'lub etolmasligiga va'da bergandi.²

Sun'iy intellektning qator ustunliklari mavjud bo'lib, ular uni turli sohalarda samarali vositaga aylantiradi. Eng avvalo, bu texnologiyalar yuqori darajadagi aniqlik va unumdorlik bilan ajralib turadi. SI oddiy operatsiyalardan tortib, murakkab strategik vazifalargacha bo'lgan jarayonlarni takroran va charchamasdan bajarishi mumkin. Shuningdek, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklar sonini kamaytirishda ham uning o'rni beqiyosdir.

Yana bir muhim jihat shuki, SI tizimlari 24 soat, haftaning har kuni uzluksiz ishlash imkoniyatiga ega. Ular na charchaydi, na diqqatini yo'qotadi, natijada barqaror faoliyatni ta'minlaydi. Bundan tashqari, xavfli vazifalarda sun'iy intellektidan foydalanish inson salomatligi va xavfsizligi uchun xavfni kamaytiradi. Masalan, ekologik xavf tahlillari yoki yong'inlarning oldini olish bo'yicha dronlar orqali monitoring olib borish bu texnologiyalar yordami bilan amalga oshirilmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalari qaror qabul qilish tezligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Katta hajmdagi ma'lumotlar bazasini qayta ishlash, tahlil qilish, modellashtirish va bashoratlar keltirib chiqarish orqali u insondan ko'ra tezroq va aniqroq xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Shunga qaramay, sun'iy intellektni joriy etish jarayonida ayrim muammolar yuzaga chiqishi mumkin. Eng avvalo, bunday tizimlarni yaratish katta

² <https://daryo.uz/2021/09/04/suniy-intellektning-insoniyat-ustidan-qozongan-ilk-galabasi-grossmeyster-garri-kasparovning-superkompyuterga-qarshi-jangi-haqida>.

moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Yana bir muammo — avtomatlashtirish natijasida ayrim kasblarning yo'qolishi va ishsizlik xavfining oshishi. Shu bilan birga, SI hali ham mustaqil ijodkorlikka qodir emas va insoniy sezgi, tajriba hamda muomala nozikliklaridan yiroq.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, sun'iy intellektning salbiy jihatlarini imkon qadar kamaytirish, ijobiy imkoniyatlarini esa to'g'ri yo'naltirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu orqali inson hayotini yengillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, vaqt va resurslarni tejash hamda xavfli vaziyatlarning oldini olish mumkin.³

Sun'iy intellektning huquqiy maqomi hali to'liq shakllanmagan. Amaldagi huquqiy nazariyada SI subyektiv huquqlarga ega emas, ya'ni u yuridik yoki jismoniy shaxs sifatida tan olinmaydi. Shu bois, u tomonidan qabul qilingan har qanday qaror uchun mas'uliyat inson – foydalanuvchi, ishlab chiquvchi yoki egasining zimmasiga tushadi.

Masalan, avtomatlashtirilgan SI tahlil tizimi tibbiy xatoga yo'l qo'ysa, natijada bemor zarar ko'rsa, ushbu holatda kim javobgar bo'ladi? Bugungi kunda bu savolga aniq va yagona javob yo'q.

O'zbekiston Respublikasi ham sun'iy intellektga bo'lgan e'tibor kundan kunga ortib bormoqda. Bu borada qaror va farmonlar ham mavjud. Ammo sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha milliy konsepsiya, strategik hujjatlarning yo'qligi sezilmoqda. Hozirgi vaqtda 40 dan ortiq mamlakatlar sun'iy intellekt sohasida milliy strategiyalar ishlab chiqqan. Ularga AQSH, Kanada, Yevropa Ittifoqi,

³ <https://iskulubu.com/manset/yapay-zekanin-en-onemli-5-avantaji-ve-dezavantaji/>.

Buyuk Britaniya, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Singapur, Janubiy Koreya va boshqa davlatlar kiradi. Ularning barchasi sun'iy intellektning huquqiy asoslarini yaratish – “Robotlar va robototexnika tizimlarini huquqiy tartibga solishning axborot manbalarini” ishlab chiqish, shuningdek, aholini sun'iy intellektidan xabardor qilish bo'yicha milliy dasturlarni amalga oshirish bilan shug'ullanmoqda.

Javobgarlik masalasi

Sun'iy intellekt ishtirokida qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlikni aniqlashda uchta asosiy yondashuv mavjud:

Ishlab chiquvchi javobgarligi – Dasturdagi texnik kamchiliklar uchun mas'uliyatni ishlab chiquvchi kompaniya oladi.

Foydalanuvchi javobgarligi – SI tizimini qo'llagan shaxs noto'g'ri qo'llagan bo'lsa, u javobgar bo'ladi.

Qo'shma javobgarlik – Yuqoridagi ikki tomon birgalikda javobgar bo'lishi mumkin.

Yevropa Ittifoqi 2024-yil 13-martda e'lon qilgan “AI Act” loyihasi SI xavf darajasiga qarab tartibga solishni taklif qiladi. Xatar darajasi yuqori bo'lgan SI tizimlari (masalan, yuzni aniqlovchi dasturlar, kredit baholash tizimlari) qat'iy nazorat ostida bo'ladi.

O'zbekistonda sun'iy intellekt javobgarligi masalasi bo'yicha Sardor Bozarov xorijiy mamlakatlar qonunchiligida sun'iy intellekt tomonidan sodir etilgan delikt uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortishning bir qancha yondashuvlarini ilmiy jihatdan tahlil etgan. Unga ko'ra, birinchi model, “The Perpetration-by-Another” (boshqa shaxs orqali sodir etish). Ikkinchi model, “The Natural-Probable-Consequence Liability” (tabiiy, ehtimoliy oqibat). Uchinchi

model, “The Direct Liability” (to‘g‘ridan to‘g‘ri javobgarlik) kabi turlarga bo‘lingan. Ushbu modellarining turi va xarakteridan kelib chiqqan holda javobgarlik masalalari belgilanilishi masalaga yangicha yondashuvdir.⁴

O‘zbekiston qonunchiligi tahlili

O‘zbekiston Respublikasida SI texnologiyalarining huquqiy asoslarini belgilovchi maxsus qonun mavjud emas. Biroq, ayrim normativ hujjatlarda SIga oid normalar mavjud:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi (PQ-358-son) “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi (PQ-4996-son) “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi (717-son) “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-avgustdagi (PQ-5234-son) “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

⁴ S. S. Bozarov. Sun’iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik. Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasining avtoreferati. – Toshkent, 2023-yil.

Shunga qaramay, SI tomonidan qabul qilingan qarorlarning huquqiy oqibatlarini tartibga soluvchi aniq mexanizmlar mavjud emas.

Xalqaro tajriba

Yevropa Ittifoqi – 2024-yilda qabul qilingan "AI Act" SI texnologiyalarini xavf darajasi asosida tartibga soladi. Yuksak xavfga ega SI tizimlari maxsus sertifikatdan o'tishi, shaffoflik me'yorlariga amal qilishi kerak.

AQSh – AI Bill of Rights loyihasi orqali inson huquqlarini SIga nisbatan himoya qilishni taklif qiladi. Asosiy tarkibi:

Xavfsiz va samarali tizimlar. Avtomatlashtirilgan tizimlar turli jamoalar, manfaatdor tomonlar va domen ekspertlari maslahati bilan tizimning tashvishlari, xavflari va mumkin bo'lgan ta'sirini aniqlash uchun ishlab chiqilishi kerak.

Algoritmilar orqali kamsitishdan himoya qilish. Avtomatlashtirilgan tizimlarning dizaynerlari, ishlab chiquvchilari va tarqatuvchilari shaxslar va jamoalarni algoritmik kamsitishlardan himoya qilish, tizimlardan adolatli foydalanish va loyihalash uchun faol va uzluksiz choralar ko'rishlari kerak.

Ma'lumotlar maxfiyligi. Avtomatlashtirilgan tizimlarning dizaynerlari, ishlab chiquvchilari va tarqatuvchilari ruxsat olishlari va odamlarning ma'lumotlarini to'plash, foydalanish, kirish, uzatish va o'chirish bo'yicha tegishli qarorlarini hurmat qilishlari kerak.

Xabar va tushuntirish. Dizaynerlar, ishlab chiquvchilar va tarqatuvchilar quyidagilarni ta'minlashi kerak: i) tizimning umumiy ishlashi va avtomatlashtirish o'ynaydigan rolining aniq tavsifi; ii) bunday tizimlar ishlatilayotganiga e'tibor bering; iii) tizim uchun mas'ul shaxs yoki tashkilot to'g'risidagi ma'lumotlar.

Insoniy muqobillar, ko'rib chiqish va qaytarish. Tegishli hollarda, insoniy muqobillik foydasiga avtomatlashtirilgan tizimlardan voz kechish imkoniyati bo'lishi kerak. Muvofiqlik ma'lum bir kontekstda oqilona taxminlar asosida va keng foydalanish imkoniyatini ta'minlash va aholini ayniqsa zararli ta'sirlardan himoya qilishga e'tibor qaratgan holda belgilanishi kerak.

Xitoy – SI faoliyatini nazorat qilish uchun qat'iy litsenziya tizimi va ma'lumotlar ustidan davlat nazorati joriy etilgan.

Yuridik sohada nizolarni hal qilish borasida sun'iy intellektdan foydalanib kelinmoqda. Sun'iy intellektning yuridik sohadagi o'rni va muammolari, huquqiy tizimning unga taalluqli masalalar bilan qanday muloqot qilishi hamda boshqarishi kerakligini o'z ichiga oladi. Uning yuridik sohadagi o'rni haqida muhim masalalar mavjud. Bularga:

1. Huquqiy muammolar. U bilan bog'liq huquqiy muammolar, shuningdek, u tomonidan yaratilgan ma'lumotlar va algoritmlar to'g'risida muomala qilish, mulkni aniqlash, haq-huquqni ta'minlash va zararlarga javob berish kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

2. Mulk va intellektual mulk. Sun'iy intellektni yaratishda, algoritmlar, ma'lumotlar va boshqa intellektual mulkning mavjudligi hamda himoyasi muhimdir. Bu mulkni aniqlash, intellektual mulkning egasi va foydalanuvchi munosabatlari, litsenziyalash hamda mulkni himoya qilish kabi masalalar tizimning muhim qismidir.

3. Javobgarlik va xavfsizlik. Uni ishlatishda javobgarlik va xavfsizlik muammolari ham yo'q emas.

4. Etik va yuridik tartibotlar ham bu jarayonda katta ahamiyatga egadir.

Sun'iy intellektni sud-huquq tizimiga joriy etish dolzarb va murakkab masalalardan biridir. Bu yo'nalish hali yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, uni to'liq tushunish va baholash uchun vaqt va amaliy tajriba zarur. Ayrim ekspertlarning, jumladan Nikolay Arxiereevning ta'kidlashicha, sun'iy intellekt sud jarayonlariga qo'shilsa, ularni yanada samarali, tezkor va xolis qilishi mumkin. Men ham bu fikrga qo'shilaman, chunki texnologik yordamchilar sudlarning sifati va unumdorligini oshirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Ayniqsa, qarorlarni asoslashda sun'iy intellektdan foydalanish, fuqarolar va tashkilotlarning sud orqali huquqlarini himoya qilish samaradorligini oshiradi. Masalan, masofaviy sud jarayonlarida fuqarolarni identifikatsiya qilish yoki sun'iy intellekt yordamida nizolarni oldindan baholash orqali huquqiy barqarorlikni mustahkamlash mumkin bo'ladi.⁵

Rossiya bu borada ehtiyotkor yondashuvni tanlagan davlatlardan biri sifatida ajralib turadi. U sun'iy intellektdan foydalanishda milliy xavfsizlik omillarini ham hisobga oladi. Masalan, "Xavfsiz shahar" loyihasi doirasida yuzni aniqlovchi kameralarning keng joriy etilishi bu sohadagi texnologik yondashuvning amaliy misolidir. Ayniqsa, pandemiya davrida bu kameralar yordamida karantin tartiblarini buzganlar aniqlangan va bu ma'lumotlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan real vaqt rejimida ishlatilgan. Shubhasiz, bu kabi tizimlar tartib-intizomni ta'minlashda va jinoyatlarning oldini olishda foydali bo'ldi. Biroq, bu texnologiyalarning sud jarayonlarida haddan ortiq qo'llanishi,

⁵ https://rapsinews.ru/judicial_analyst/20220907/308254120.html.

masalan, sud qarorlarini avtomatik tarzda chiqarish, inson omilini butunlay chetga chiqarib qo'yishi mumkin degan xavotirlar ham yo'q emas.⁶

Shuningdek, AQSH tajribasini ham alohida e'tirof etish kerak. Bu mamlakatda sun'iy intellekt sohasidagi huquqiy va strategik yondashuvlar tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Jumladan, Prezident farmonlari, Mudofaa vazirligining strategiyalari va boshqa muhim hujjatlar orqali bu texnologiyalarni rivojlantirish va tartibga solish yo'nalishida muhim qadamlar tashlangan. Ayniqsa, iqtisodiy va milliy xavfsizlikni ta'minlashda sun'iy intellektning tutgan o'rni bo'yicha qat'iy pozitsiya mavjud.⁷

XULOSA

Sun'iy intellekt inson faoliyatini yengillashtiruvchi kuchli vositaga aylanmoqda. Bu texnologiya ayniqsa yuridik sohada samarali qo'llanilsa, sud-huquq tizimi ishini soddalashtirishi, tezlashtirishi va natijada adolatga erishish jarayonini kuchaytirishi mumkin. Sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi ushbu yo'nalishda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu imkoniyatlarni o'zimizga moslashtirib, ehtiyotkorlik bilan joriy etish esa yurtimizdagi huquqiy islohotlarga xizmat qilishi mumkin.

Biroq sun'iy intellektning nafaqat ijobiy, balki ayrim salbiy jihatlari ham mavjud bo'lib, uni to'g'ri boshqarish, huquqiy nazorat ostida qo'llash, inson huquqlari va erkinliklarini to'liq ta'minlash zarur. Texnologiyaning inson o'rnini egallashi emas, balki inson faoliyatiga ko'maklashuvchi vosita sifatida xizmat qilishi muhim. Shuningdek, sun'iy intellekt bilan bog'liq ehtimoliy xavf-xatarlarni

⁶ Jaemin Lee. Artificial Intelligence and International Law. Springer Nature Singapore Pte Ltd, 2022, p.261.

⁷ "ICTweek – 2023" haftaligi doirasida "Sun'iy intellekt kelajagi va global integratsiya" mavzusidagi xalqaro sammit.

bartaraf etish uchun bu sohada huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish, malakali mutaxassislar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish zarurati ortib bormoqda.

Kelajakda sun'iy intellektning imkoniyatlari yanada kengayadi. Shu bois, har bir davlat o'z yuridik tizimida sun'iy intellektdan foydalanishga oid aniq huquqiy asoslarni yaratishi, jamiyat manfaatlarini himoya qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilashi lozim. Faqat shundagina ushbu texnologiyalar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi, xavfsiz va samarali vosita bo'lib shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Tashkent Law Spring" III Xalqaro yuridik forumi.
https://www.youtube.com/live/0Wvxw4_p6lw?si=e3QoVPLDTuBmEzJb
2. <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/osmirlar/qiziqarli-faktlar/suniy-intellekt/>.
3. <https://iskulubu.com/manset/yapay-zekanin-en-onemli-5-avantaji-ve-dezavantaji/>.
- 4 S. S. Bozarov. Sun'iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik. Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasining avtoreferati. – Toshkent, 2023-yil.
5. https://rapsinews.ru/judicial_analyst/20220907/308254120.html.
6. Jaemin Lee. Artificial Intelligence and International Law. Springer Nature Singapore Pte Ltd, 2022, p.261.
- 7 "ICTweek – 2023" haftaligi doirasida "Sun'iy intellekt kelajagi va global integratsiya" mavzusidagi xalqaro sammit.